

QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN HOLAT SIFATIDA KAM AHAMIYATLI QILMISHLAR

Samiyev Shaxruz Yunusovich

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu dissertatsiyada qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat sifatida kam ahamiyatli qilmish haqida to'liq umumnazariy tushunchani hosil qilish. Uning yuridik tabiati, jinoiy-huquqiy xarakteristikasi, kam ahamiyatli qilmishni baholashda qo'llanladigan ilmiy-asoslangan tavsfiyalar va amaliy xulosalar keltirib o'tilgan.*

Shuningdek, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat sifatida kam ahamiyatli qilmishlarning jinoyat qonunchiligidagi o'rni va kam ahamiyatli qilmishlar va ma'muriy javobgarlik o'rtasidagi nisbat masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Qolaversa, kam ahamiyatli qilmishlarning jinoyat huquqida chegaralari masalasi amaliy misollar vositasida ochib berilib, kam ahamiyatli qilmishlarning xorijiy mamlakatlar tajribasidagi o'rni masalasi e'tibordan chetda qolmagan.

Kalit so'zlar: *qilmish, kam ahamiyatli qilmish, jinoyat, kam ahamiyatlilik, ijtimoiy xavflilik.*

Аннотация: *В этой диссертации рассматривается полное общетеоретическое понятие малозначительность деяния приведены его правовая природа, уголовно-правовая характеристика, научно обоснованные характеристики и практические выводы, которые используются при оценке малозначительного деяния.*

Отдельно затронуты также вопросы места малозначительных деяний в уголовном праве как обстоятельства, исключающие преступность деяния, и соотношения малозначительных деяний и административной ответственности.

При этом вопрос о границах малозначительных деяний в уголовном праве раскрыт на практических примерах, а вопрос роли малозначительных деяний в опыте зарубежных стран тоже не остался без внимания.

Ключевые слова: *деяние, малозначительное деяние, преступление, малозначительность, общественно опасность.*

Abstract: *In this dissertation, the full general theoretical concept of the insignificance of an act is considered, its legal nature, criminal law characteristics, scientifically based characteristics and practical conclusions that are used in evaluating an insignificant act are given.*

The issues of the place of minor acts in criminal law as circumstances excluding the criminality of an act, and the ratio of minor acts and administrative responsibility are also discussed separately.

At the same time, the question of the boundaries of minor acts in criminal law is revealed by practical examples, and the question of the role of minor acts in the experience of foreign countries has also not been ignored.

Key words:The deed, minor acts, crime, insignificance, socially dangerous.

KIRISH

Bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda jinoyatchilik va unga qarshi kurash kun sayin emas soat sayin olib borilayotgan bir paytda jinoyat qonunchiligida davlat va jamiyat manfaatlariga raxna soladigan qilmish tushunchasi jinoyat deb atalib u barcha uchun aniq bir me'zonga ega va jazo tayinlashda o'ziga xos o'lchov vazifasini bajarib kelmoqda. Formal jihatdan o'sha qilmish jinoyat deb topilsada, biroq ba'zi o'ziga xos farqli jihatlari bilan u jinoyat deb e'tirof etilmaydigan qilmishlar ham bugungi kundagi javobgarlik masalasida o'ziga xos junboq vazifasida kelmoqda. Jinoyat qonunchiligidagi ba'zi bo'shliqlar sabab shaxsni sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikka tortish yoki tortmaslik maslasi ochiq qolmoqda. Yuqoridagi muammoli vaziyatni yechishda bizga qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat sifatida kam ahamiyatli qilmishlar tushunchasini mufassallashtirish va uning ma'muriy javobgarlik bilan nisbati aniqlash masalasi muhim hisoblanadi. Shuningdek, "2022—2026 – yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" prezidentimizning farmonlarida jinoyatchilikka qarshi kurashish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish tartibi joriy etish, jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish. Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha preventiv mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu yo'nalishda maxsus qonun qabul qilish. Yuvenal adliya tizimini shakllantirish hamda bola huquqlari qonunchiligini kodifikatsiyalash. Tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmatini va erkinligini samarali himoya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlar haqida xabarlarini hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanish. Jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik haqida xabar berish va ularni ro'yxatga olishning "E-huquqbuzarlik" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish.

Prokuratura organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda davlat va jamoatchilik nazoratini o'zaro uyg'unlashtiruvchi yangi tizim joriy etish. Tergov faoliyatini nazorat qilish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan yangi turdagi jinoyatlar, shu jumladan kiberjinoyatlarni fosh etish bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini isloh qilish, qo'shimcha kuch va vositalarni jalb qilish hamda ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish

jarayonlarida fuqarolarning qadr-qimmatini va erkinligini himoya qilishning samaradorligini yanada oshirish.

Murojaatlar bilan ishlash sohasiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan holda aholi uchun uyidan turib, tunu-kun to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish imkoniyatini yaratish. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish institutini isloh qilish va jinoyat haqidagi xabarlarini ro'yxatga olish jarayonini to'liq raqamlashtirish. Mansabdor shaxslar ma'muriy sud qarorini bajarmagan taqdirda, ularga nisbatan "oshib boradigan" jarima va boshqa huquqiy choralarni qo'llash tartibini belgilash. Sudlar tomonidan ijro varaqalarini inson omilisiz elektron shaklda yuborish imkonini beruvchi elektron platformani yaratish orqali ushbu jarayonni to'liq raqamlashtirish. Ijro jarayonini shaffof tarzda masofadan turib onlayn kuzatib borish imkonini yaratish. Sud tomonidan tayinlangan jarimalarni maxsus raqam bo'yicha to'lash tizimini soddalashtirish.

Sudyalar oliy maktabini xalqaro andozalar asosida tubdan isloh qilish.. Odil sudlov sohasida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish uchun kasbiy tayyorgarlikni zarur darajada ta'minlash. Sudyalikka nomzodlarni tayyorlashga "70 foiz amaliyot — 30 foiz nazariya" tamoyilini qo'llash. Sudyalarni tayyorlash jarayoniga xorijiy mutaxassislar, jumladan chet elda faoliyat yurituvchi ma'muriy sud sudyalari jalb etish kabi bir qancha yo'l-yo'riqlar ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan.

Mavzuning dolzarbligini bu – kam ahamiyatli qilmish haqida nazariy bilimlarni ishlab chiqish va ularni tizimlashtirish zaruriyati bilan bog'liq, kam ahamiyatli qilmishning mohiyati, belgilari va huquqiy oqibati qolaversa, huquqni qo'llash amaliyoti ehtiyojlarini va ilmiy asoslangan tavsfiyalardagi baholash mezonini bilan bog'liqdir.

Kam ahamiyatli qilmish kategoriyasini jinoyat qonunchiligida o'rni

Kam ahamiyatli qilmishning jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi degan norma amaliyotdagi ba'zi bir ehtiyojlardan kelib chiqqan. Bunday ehtiyoj jinoyatchilik ko'rsatkichlarini sun'iy ravishda oshirishni oldini olish va tergov va boshqa HMO tomonidan repressiyani kamaytirish maqsadida ushbu norma amaliyotda tatbiq e'tilgan. Bugungi kunda huquq-amaliyotining nazariy tadqiqotlarga ta'siriga ega ekanligi shubhasiz. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini qonun chiqaruvchi tomonidan belgilanadi. O'sha qilmishni kam ahamiyatli deb topish esa JKning 36-moddasiga ko'ra huquqni muhofa qiluvchi organning o'sha holatdagi subyektiv qarashiga bog'liqdir. Chunki qonunchilik aynan qanday me'zonlarga qarab kam ahamiyatli qilmishni qo'llash mumkinligiga aniqlik kiritmagan. Keyin esa qonun chiqaruvchining irodasi va HMOning subyektiv fikriga ko'ra jinoyat-qonunchiligida kam ahamiyatli qilmish institutini qo'llash bo'yicha muammolar vujudga keladi va buning asosiy sababi esa qonun chiqaruvchi tomonidan yagona me'zon va qo'llash bo'yicha ta'rifning yo'qligidadir. Bundan tashqari kam ahamiyatli qilmishlarning chegarasi va uni qo'llash amaliyoti yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shuningdek, kam

ahamiyatli qilmish institutining jinoyat-huquqi ishtitutigiga va kam ahamiyatli jinoiy huquqiy-qilmishlarning boshqa huquq sohalariga ta'siri yetarlicha o'ragnilmagan. Huquq amaliyotchilari tomonidan jinoyat kodeksining 36-moddasidagi normaning juda kam qo'llanilishi ushbu normaning kerakligi haqida shubhalar tug'ilishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu fikrga hamfikr bo'lgan huquqshunoslardan biri V.V. Maltsev shunday deydi "kam ahamiyatli qilmishlar jinoyat kodeksiga hech qanday ijobiy sifatni olib kelmaydi, chunki uning o'zi jinoyat tushunchasiga hech qanday aloqaga ega emas"⁵⁸ boshqa bir olimlardan biri esa A.P. Kozlov esa kam ahamiyatli qilmish institutidan umuman voz kechish kerakligini, u amaliyotda jinoyat qonunini suiste'mol qilishga olib kelishini va kam ahamiyatli qilmishlarga boshqa usullarda ta'sir ko'rsatish mumkinligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra quyidagi moddalar kam ahamiyatli qilmishning o'rnini bosoladi. Qilmish kam ahamiyatli bo'lsa unga JKning 57-moddasi ya'ni (yengilroq jazo tayinlash), JKning 66¹ – moddasi (yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish) kabi moddalarni qo'llash mumkin deb hisoblagan. Bu borada shaxsiy fikrim yuqoridagi moddalar kam ahamiyatli qilmish institutini o'rnini bosolmaydi deb hisoblayman chunki ular o'z huquqiy tabiatiga ko'ra jinoyat hisoblanadi kam ahamiyatli qilmish esa ijtimoiy xavfliligining yo'qligi bois jinoyat deb e'tirof etilmaydi.

Rossiya Federatsiyasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ko'ra oz miqdorda talon-taroj qilish (мелкое хищение) ma'muriy huquqbuzarlik deb e'tirof etish hollari mavjud. Agar o'sha qilmish Rossiya Federatsiyasi JKning 158 (кража) og'rilik, 160 (присвоение или растрата) o'zlashtirish yoki rastrata tarkibini bermasa.

Shuningdek, milliy qonunchiligimizda oz miqdorda talon-taroj qilish moddasi MJTKning 61-moddasida o'z aksini topgan ya'ni mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan oz miqdorda talon-taroj qilish — bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu vaziyatda shaxsiy fikrim ushbu norma faqat yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilgan va shu normaga qo'shimcha qilib jismoniy shaxslarga ham javobgarlik masalasini kiritib ketish lozim.

Bu yerda miqdor masalasi hal qiluvchi me'zon bo'lib xizmat qilmoqda. Jinoyat kodeksi va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning o'zaro chambarchas ekaligini hisobga olib ayrim davlatlar aniq bir o'lchov uchun me'zonni ishlab chiqqanlar. Misol uchun Rossiya Federatsiyai ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 7.27-moddasi 2-qismida o'zgalarning mulkini oz miqdorda talon-taroj qilish 1000 (ming) rubldan boshlanib to 2500 (ikki ming besh yuz) rublgacha miqdorda o'g'rilik, firibgarlik, o'zlashtirish yoki rastrata yo'llari bilan amalga oshirilgan bo'lsa va jinoyat kodeksining tegishli moddalari tarkibini bersa ham miqdor bo'yicha 2500 (ikki ming besh yuz) rubldan oshmasa ushbu qilmish ma'muriy huquqbuzarlik sifatida e'tirof

⁵⁸ Мальцев.В.В Малозначительность деяния в уголовном праве. //Законность.1999.С-17-21.

etiladi. Biroq ushbu normadan kelib chiqib qilmish, talon-taroj qilingan mulkning qiymatiga qarab jinoyat tarkibini belgilanadi bu esa jinoyat kodeksidagi fuqarlarning qonun oldida tengligi va odillik prinsiplarini to'liq ishlashiga to'sqinlik qiladi nazarimda chunki Rossiya huquqshunoslari ushbu normada 2500 rublning qadri masalasini biroz chetda qoldirganlar sababi ushbu summani hozirda milliy valutamizga o'girsak 1 rubl 159-160 so'm atrofida bo'lgan vaqtda 2500 rubl bizning milliy so'mimizga 400 000 (to'rt yuz ming) so'mga aylanar ekan. Bu summa esa qaysidir aholi qatlami uchun ahamiyatga ega summa hisoblanadi. Shuning uchun yuqoridagi prinsiplarga putur yetkazmoqda deb hisoblayman.

Rossiya qonunchiligini kuzatish davomida aynan oz miqdorda talon-taroj (2500 rublgacha) bo'lgan miqdor bilan bog'liq qilmishlarni sud ayblov hukmini bekor qilib asosga kam ahamiyatli qilmish deb tasdiqlagan holatlarni aniqladim va bu qilmishlarni kam ahamiyatli deb topish har doim ham to'la asoslangan deb aytolmayman chunki kam ahamiyatli qilmish faqatgina qonunni qo'llovchi subyektlar qo'lida o'sha individual vaziyatga nisbatan baholash vositasi bo'lib xizmat qiladi xolos.

Qilmishni kam ahamiyatli deb topish uchun asosiy o'lchov me'zoni bu albatta huquqni muhofaza qiluvchi shaxslarning (organlarning) huquqiy bilimi ya'ni o'sha bilim kam ahamiyatli qilmishni baholashda hisobga olinishi lozim bo'lgan kompleks holatlarni ya'ni qilmishning obyektiv va subyektiv holatlari, shuningdek, kam ahamiyatli qilmishning omillarini – ijtimoiy xavfga ega bo'lmagan ahamiyatsiz (juda oz) miqdorda zararning mavjudligi, joyi, vaqti, qasdning aynan kam ahamiyatli ekanligi, motiv va maqsadning aynan kam ahamiyatli qilmish sodir etishga mo'ljallanganligi kabilarni o'zida mujassamlashtirishi lozim. Rossiya qonunchiligidagi 2500 rublgacha bo'lgan oz miqdordagi talon-taroj qilishlarni jinoiy ta'qib qilishdan voz kechish amaliyoti o'z navbatida kissovrlik, guruh bo'lib og'rilash va uy o'g'riliklari kabi qilmishlarga qarshi jinoiy-huquqiy mexaniz ta'sirini susaytiradi. Keyinchalik bu holatlar esa aynan kissovrlik va uy o'g'rilari ushbu miqdorni o'lchov me'zoni qilib olib javobgarlikdan aylanib o'tish hollari ham kuzatiladi. Bu esa jabrlanuvchilarda asosli havotir hisini vujudga keltiradi.

Agar oz miqdorda talon-taroj qilishni (мелкое хищение) qonun chiqaruvchi kam ahamiyatli qilmish deb topishi mumkin bo'lsa lekin qilmishni malaklashda ya'ni kvalifikatsiya qilishda ushbu holatlar jinoyat tarkibini bermasa bunday qilmishlarni biz o'z-o'zidan yuridik javobgarlik chegarasidan chiqarib tashlashimiz mumkin chunki ma'muriy huquqbuzarlik ham jinoyat kabi huqqa xiloflik, ayblilik va javobgarlik kabi xarakterli belgilarga ega hisoblanadi. Shuning uchun huquqni qo'llovchi subyektlar har bir analogli ya'ni shunga o'xshash vaziyatlarda oz miqdorda talon-taroj qilishni (мелкое хищение) kam ahamiyatli qilmish deb e'tirof etishdan oldin har bir kam ahamiyatli qilmishlarga aloqador barcha omillarni hisobga olishi va ayblanuvchiga qilmishi kam ahamiyatli deb e'tirof etilishiga umid bermasligi va oddiy fuqarolarni ularni oldida himoyalangan holda qo'yimasliklari lozim. Shuning uchun amaliyot

prizmasi orqali kam ahamiyatli qilmishning omillarini ko'rib chiqish joiz deb hisoblayman. Hozir quyida bir vaziyatni ko'rib o'tamiz:

” Ish materiallaridan kelib chiqqan holda sud ayblanuvchi N ismli shaxsni 15 mart kuni tunda kutubxonaga kirib, sezilarli qiymatga ega bo'lmagan 2 dona qaychini olib chiqib ketganlikda Rossiya Federatsiyasi JKning 158-moddasi o'g`rilik (кража) 2-qismi “b” bandi ya`ni bino yoki boshqa omborxonaga noqonuniy ravishda kirishda aybdor deb topdi.

Tergov davomida ayblanuvchi N kutubxonaga biror bir maishiy texnikani og`irlash uchun kirgani lekin hech vaqo yo`qligi uchun 2 dona qaychini olib chiqib ketgani va ularni hatto ishlatmasdan tashlab yuborganini aytgan.

Rossiya qonunchiligiga ko'ra o'zganing mulki deb talon-taroj predmeti sifatida mulkdorda mulkka nisbatan mulkdorlik hissini vujudga keltiradigan aniq bir qiymat va narxga ega bo'lgan narsalar sanaladi.

Yuqorida ayblanuvchi N avval RF Jinoyat kodeksining 158-moddasi 2-qimi “b” bandiga ko'ra birinchi instansiya sudi tomonidan aybdor deb topilgan edi. Lekin nazorat instansiyasi qaroriga ko'ra ayblanuvchi Nning harakatlarida RF Jinoyat kodeksining 158-moddasi 2-qimi “b” bandi alomatlar mavjud emas deb topilib uni RF jinoyat kodeksining 30-moddasi 3-qismi ya`ni jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish deb topilgan.

Chunki, sud tomonidan chiqarilgan hukmda 2 dona qaychi esa moddiy qiymatga ega emas deb topilgan. Shunga ko'ra ushbu qilmishni Rossiya Federatsiyasi JKning 14-moddasi 2-qimiga ko'ra kam ahamiyatli qilmish deb topilgan va ayblanuvchi N javobgarlikdan ozod etilgan.”⁵⁹

Jinoyat ishi materiallarini ishda (amaliyotda) shakllantirilgan omillarga mos kelishi bilan taqqoslaylik:

1) Qilmishning obyekti

Yuqoridagi jinoyatning obyekti molk-mulk munosabatlari hisoblanadi. Fakultativ obyekt sifatida shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari sanaladi. Ushbu harakatning ijtimoiy xavfliligi uning yuqori darajada pretsedentliligi ya`ni hayotda ko'p uchrashi va nisbatan kam darajada zarar yetkazishida ifodalanadi.

2) Obyektiv tomoni

O'g'rilikning jinoyatining obyektiv tomoni o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilishda ifodalanadi. Jinoyatning obyektiv tomoni xususiyatiga ko'ra ushbu jinoyat moddiy tarkibli hisoblanadi. Chunki, majburiy xususiyat sifatida ijtimoiy xavfli oqibat ya`ni mulkiy zarar vujudga kelishi lozim. O'sha vaqtda ya`ni 2006-yil bo'yicha RF ma`muriy javobgarlikning 7,27-moddasiga ko'ra 1000(ming rubl) etib belgilangan mulkiy ziyon. Biroq jinoyatni og`irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi

⁵⁹ Надзорное определение СК по уголовным делам Верховного суда РФ от 26-июня 2008 г. По делу № 9- ДП08-11. Доступ из Науч.б-ки Том-гос.Ун-та.

mulkiy ziyonning miqdoridan qat'iy nazar qilmish ma'muriy javobgarlik bilan emas jinoyat bilan jazolanadi.

Yuqoridagi ishdan kelib chiqib ayblanuvchi Nning harakatlarida RF jinoyat kodeksining 158-moddasi 2-qimi "b" bandi tarkibi mavjud biroq yetkazilgan zararining ahamiyatsiz ekanligi ya'ni 2 dona qaychining bahosi qilmishni kam ahamiyatli deb topilishiga asos bo'ladi.

3) Subyekt

Yuqorida ta'kilaganimizdek, kam ahamiyatli qilmishlarda ko'pgina huquqni qo'llovchi xodimlar jinoyatchining ijtimoiy xavfliligi bilan qilmishning ijtimoiy xavfliligini adashtirib qo'llashadi. Kam ahamiyatli qilmishda o'sha qilmishning aynan ijtimoiy xavflilik darajasi hisobga olinishi lozim. Jinoyatchi shaxsning ijtimoiy xavfliligi faqatgina jazo o'tash davrida va hukm chiqarishda hisobga olinadi qilmishni kam ahamiyatli deb topishda emas.

4) Subyektiv tomoni

Huquqshunos Bagirov.Ch.M. fikriga ko'ra " kam ahamiyatli deb faqat qasddan sodir etilgan formal jihatdan jinoyat deb e'tirof etilgan harakat (harakatsizlik) larga aytiladi "⁶⁰ deb hisoblaydi. JKning 36-moddasini tahlil qilganimizda qonun chiqaruvchi aynan shaxsning harkatlari oqibatga nisbatan noaniq ya'ni vaziyatga qarab jinoyat yoki kam ahamiyatli bo'lmasligi kerak degan fikr mujassamlashtirgan. Ya'ni shaxsning qilmishi ijtimoiy xavfli bo'lmagan harkatda (harakatsizlik)da ifodalanishi u bilan qonun chiqaruvchi shaxning qilmishidan aniq kam ahamiyatli qilmish sodir etishga qasd bo'lishi lozimligini ta'kidlagan.

Qonun chiqaruvchi ushbu jumlaning mufassalroq ko'rinishda ya'ni shaxsning harakatlari aniq kam ahamiyatli qilmish sodir etishga qasd qilishi lozim degan jumlaning kiritib o'tishini taklif qilaman. Chunki shaxsning qasdi sezilarli zarar yetkazishga qasd qilgan bo'lib lekin real zarar sezilarsiz bo'lsa uning harakatlarini kam ahamiyatli deb topish qonun normasini noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi.

Shunday qilib yuqoridagi vaziyatimizda ayblanuvchi Nning harakatlarida boshdanoq biror bir maishiy texnikani olib ketish qasdi bo'lganini tergov davomida bildik biroq real zarar esa ahamiyatsiz bo'lib chiqdi va uni qilmishini biz kam ahamiyatli deb topishimiz mumkin emas.

Yana boshqa bir misol yordamida kam ahamiyatli qilmishni malakalash ya'ni kvalifikatsiyalash jarayoniga oydinlik kiritamiz.

"Dastlabki tergov organlari tomonidan K ismli shaxs 18-may kuni 2014-yili o'g'rilik maqsadida singlisi Sning kvartirasigga kiradi va qiymati 1164 rubl bo'lgan multivarkani yashirin ravishda o'g'irlab ketadi. Tergov organi unga RF jinoyat kodeksining 158-moddasi o'g'rilik (кража) 3-qismi "a" bandi ya'ni uyga noqonuniy ravishda kirish bilan bo'yicha ayblov qo'yadi. Dastlabki tergov davomida K ayblovni tan oladi va uning maqsadi spirtli ichimlik sotib olish uchun bu jinoyatni sodir etganini

⁶⁰ Багиров. Ч.М. Указ. соч. С-79

tan oladi. Sud majlisi davomida jabrlanuvchi S tomonidan jinoyat ishini tugatish bo'yicha iltimosnoma kiritiladi va sud ayblanuvchi Kning harakatlarida qilmishning kam ahamiyatligi tufayli jinoyat tarkibi yo'qligini asos qiladi.

Shuningdek, sud o'z hukmida ayblanuvchi Kning harakatlari natijasida zararli oqibat kelib chiqmaganini, o'g'irlangan multivarkaning bahosi 1164 rubl ekanligini va jabrlanuvchining o'zi sud zalida ushbu qurilma ularga birinchi navbatdagi ehtiyoj buyumi emasigini, Sning oilasining oylik daromadiga 60.000 rublni tashkil etishini va bu ularga nisbatan sezilarli zarar sifatida e'tirof etib bo'lmasligini asos qilib ko'rsatgan"⁶¹.

1. Obyekti

Ushbu qilmishda obyekt yuqorida ko'rib chiqqan vaziyatdagi obketga analog ya'ni o'xshash hisobladi ya'ni mol-mulk munosabatlaridir. Fakultativ obyekt esa shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklaridir.

2. Obyektiv tomoni

Kning harkatlari RF jinoyat kodeksining 158-moddasi o'g'rilik (кража) 3-qismi "a" bandi ya'ni uyga noqonuniy ravishda kirish bilan to'g'ri malakalashtirilgan Obyektiv tomoni o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilishda ifodalanadi. Jinoyatning obyektiv tomoni xususiyatiga ko'ra ushbu jinoyat moddiy tarkibli hisoblanadi. Chunki ijtimoiy xavfli oqibat mulkiy zarar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

3. Subyektiv tomoni

Kning qasdi multivarkani o'g'irlashga qaratilgan edi. Keyinchalik uni sotib spirtli ichimlik sotib olish maqsadida. Qilmishning kam ahamiyatligi alohida bir omillar bilan emas balki, shaxsning jinoiy xatti-harakatlarda namoyon bo'lgan subyektiv va obyektiv, asosiy va fakultativ belgilarga qarab belgilanadi.

Ish materiallaridan kelib chiqib sud qilmishni kam ahamiyatli deb topishda jabrlanuvchining iltimosnomasi, uning bir oylik oilaviy daromadi va uning ayblanuvchi bilan qarindoshlik munosabatlarini hisobga olgan. Lekin ushbu omillar sud tomonidan qilmishni kam ahamiyatli deb topishda asos bo'lolmaydi. Chunki JKning 36-moddasiga ko'rsa aniq belgilangan ko'rsatkich me'zonlarda yuqoridagi asoslar keltirib o'tilmagan yagona asos RF ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda belgilab o'tilgan chegaralangan midor darajasi hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, biror bir qilmishni kam ahamiyatli deb topishdan avval qonchilikda aniq bir o'lehov me'zonini kiritish lozim. Ushbu me'zon har bir oilaning oylik daromadiga qarab belgilanishi maqsadga muvofiq chunki har qanday summa har xil oilada qadri turlicha agar bitta summani barchaga tatbiq qilinsa unda JKning fuqarlarning qonun oldida tengligi va odillik prinsiplarini buziladi. Keyingi bosqicha ijtimoiy xavflilik tushunchasini shaxsning post kreminal yoki prekreminal o'zini xulq-

⁶¹ Апелляционное определение СК Ульяновского областного суда от 20 авг. 2014 г. по делу № 22-1884/2014 г // КонсультантПлюс : справ. правовая система. Версия Проф. Электрон. дан. М., 2014. Доступ из локальной сети Науч. б-ки Том. гос. ун-та

atvori emas balki qilmishni o'sha vaziyatdagi ijtimoiy xavfli emasligiga e'tibor berish lozim.

Shuningdek, kam ahamiyatli qilmishning omillarini – ijtimoiy xavfga ega bo'lmagan ahamiyatsiz (juda oz) miqdorda zararning mavjudligi, joyi, vaqti, qasdning aynan kam ahamiyatli ekanligi, motiv va maqsadning aynan kam ahamiyatli qilmish sodir etishga mo'ljallanganligi kabilarni albatta hal qiluvchi me'zon sifatida e'tiborga olish lozim.